



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 24-iyun, № 127 (9298)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



NAMANGANDA IMKONIYATLAR ANIQ LOYIHALARGA, YANGI ISH O'RINLARI VA QO'SHILGAN QIYMATGA AYLANTIRILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-iyun kuni joylarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda turli sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalar va joriy qilingan ilg'or yechimlar bilan tanishish maqsadida tashrif bilan Namangan viloyatida bo'ldi.



Prezidentimizning hududlarga tashrifi, eng avvalo, inson qadri va sha'ni ulug'lash, elimiz farovonligi va turmush darajasini yanada yaxshilash, shahar va tumanlarning mavjud resurs va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali iqtisodiyot hamda infratuzilmani tubdan rivojlantirishda muhim o'rinni egallaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 16-17-sentabr kunlari Namanganga tashrifi chog'ida salmoqli loyihalar bilan

tanishib, viloyatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari ko'lamini kengaytirish, tadbirkorlik, sanoat, xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirish, aholining yashash sharoitini yuksaltirish borasida dolzarb vazifalarni belgilab bergan edi. O'tgan davr mobaynida mazkur topshiriqlar asosida olib borilgan amaliy ishlar natijasida Namangan ko'plab jabhalarda o'z o'rnini topdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning

viloyatga bu safargi tashrifi Namangan xalqaro aeroportida barpo etilayotgan yangi yo'lovchi terminali qurilishini ko'zdan kechirishdan boshlandi.

Mamlakatimizda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Namangan xalqaro aeroportini kengaytirish loyihasi ham ana shu islohotlarning muhim qismi hisoblanadi.



Mazkur qurilish ishlari davlatimiz rahbarining 2021-yil 29-martdagi "Respublika aeroportlarini boshqarish sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida amalga oshirilmoqda.

Namangan xalqaro aeroporti 1971-yilda foydalanishga topshirilgan. 2013-yildan xalqaro maqomda faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda aeroport orqali

9 ta aviakompaniya muntazam parvozlarni amalga oshiryapti.

Loyihaga jami 175 million dollar investitsiya jalb qilingan. Rejaga ko'ra, 2026-yil yakuniga qadar zamonaviy talablarga javob beradigan yangi yo'lovchi terminali ishga tushiriladi. Maydoni 22,6 ming kvadrat metr bo'lgan uch qavatli terminal soatiga 1,2 ming nafar va yiliga 3 million nafardan ziyod yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga

ega bo'ladi. Bu esa aeroportning hozirgi quvvatini bir necha barobar oshiradi.

Yangi terminalda chegara va bojxona nazorati punktlari, viza xizmatlari, biznes-zal, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari, tibbiyot punkti hamda "Duty Free" hududi tashkil etiladi. Natijada 550 ta ish o'rni yaratiladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI XALQARO MAQOM SAN'ATI ANJUMANINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblari!

Betakor O'zbekiston zaminida uchinchi bor o'tkazilayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida dunyoning turli qit'a va mamlakatlaridan tashrif buyurgan taniqli san'at va madaniyat namoyandalari ko'rib turganimdan mamnunman.

San'at – qalblarni birlashtiradigan, odamlarga ezigulik ulashadigan ma'naviyat ko'prigidir deb bejiz aytilmagan. Shu ma'noda, yurtimizda doimiy tus olgan ushbu anjuman – maqom san'atining umumbashariy nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan jahon sahnasiga aylanib bormoqda.

Bugungi tadbirimizda UNESCO, ICESCO, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy oqsoqollar kengashi, TURKSOY, Turkiy Parlament Assambleyasi, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi hamda boshqa xalqaro tuzilmalar rahbarlari, chet davlatlarning madaniyat vazirlari hamda muhtaram elchilari, 80 dan ortiq xorijiy mamlakatlarining 250 ga yaqin madaniyat va san'at vakillari ishtirok etayotgani anjumanimizga alohida fayz va shukuh bag'ishlamoqda.

Fursatdan foydalanib, uzoq-yaqin yurtlardan tashrif buyurgan aziz mehmonlarimizga o'zimizning samimiy minnatdorigimni bildiraman.

Yangi O'zbekistonga xush kelibsiz!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O'zbekiston zaminidagi har bir tuman, har bir viloyat, har bir hudud o'ziga xos san'ati va madaniyati, qadriyat va an'analari, mashhur ijodkorlariga ega. Bugungi anjumanimiz o'tayotgan so'lim va go'zal Namangan diyori ham ana shunday tabarruk maskandir. Namangan o'zining tadbirkorlari, obod shahar va qishloqlari, sanoat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat, san'at hamda sportdagi yutuqlari, bilimlari va shijoatli yoshlari bilan alohida e'tirofga loyiq.

Shu kunlarda ushbu fayzu tarovlatli zaminda yuksak darajada tashkil etilgan, butun dunyoga mashhur 65-xalqaro Namangan gullar festivali shodu xurramlilik bilan davom etmoqda. Va men bugungi imkoniyatdan

foydalanib, butun xalqimizni, barcha nafosat shaydolarini xursand qilayotgan ana shunday ulkan bayram bilan siz, azizlarni – mehnatkash va mirishkor, oqko'ngil, pok niyatli Namangan ahlini yana bir bor samimiy tabriklayman.

Mazkur festival Yangi O'zbekiston sharoitida oddiy gullar ko'rgazmasidan xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgan katta madaniy hodisa, o'ziga xos milliy brend darajasiga ko'tarilganini biz nafaqat Farg'ona vodiysi, balki butun mamlakatimizdagi ulkan o'zgarishlar samarasi sifatida qabul qilamiz. Bugungi kunda ko'rkam chamanzorga aylangan Namangan diyorida joriy yilning o'zida 150 million tupdan ortiq gul ko'chatlari o'tqazilgani va bu natija xalqaro miqyosda tan olinib, "Ginnessning rekordlar kitobi"ga kiritilgani har tomonlama e'tibor va tashnaga sazovor, ibrat olishga arziydigan voqea, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Ming rahmat sizlarga, qo'llaringiz hech qachon dard ko'rmasin!

Aziz yurtdoshlar!

Namangan buyuk shoir va mutafakkir Boborahim Mashrab, Nodim, Fazli, Majzub Namangoni, So'fizoda, Ibrat, Usmon Nosir, Chustiy, Habib Sa'dulla kabi atoqli so'z san'atkorlarini kamolga yetkazgan saxovatli zamindir. Bu ulug' zotlar qatorida milliy musiqa madaniyatimiz rivojida o'chmas iz qoldirgan Ro'zimaxon Isaboyev, Vahobjon Abdullayev, Mahmudjon Muhammadov, Ergash Yo'ldoshev, Saidjon Kalonov, Tursunoy Mamedova, Kamoliddin Rahimov, Habiba Oxunova, O'rinboy Nuraliyev, Hadiya Yusupova, Jo'raxon Rahimov singari el tanigan hofizlar, sozanda va bastakorlarning nomlarini bugun ham hurmat bilan tilga olamiz.

Ushbu o'lmas siymolarning boy ijodiy merosi yangi-yangi san'atkorlar avlodi uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Qadrlidostlar!

UNESCO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan maqom naqadar buyuk va noyob san'at ekanini barchamiz yaxshi bilamiz va xalqaro hamjamiyatning bunday e'tirofini yuksak qadrlaymiz. Zero, maqom bu oddiy musiqa emas. Maqom – millatning xotirasi, xalqning qalbi va asrlar osha yangrab kelayotgan ma'naviy ovozi. Unda ajodlar hikmati, orzu-

umidlari, dardi va quvonchi mujassam, desam, o'ylaymanki, fikrimga qo'shilasiz.

Yurtimizda o'tkazilayotgan uchinchi Xalqaro maqom san'ati anjumanining asosiy maqsadi – ana shunday noyob merosni asrab-avaylash, o'rganish va targ'ib etish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishdan iborat.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda maqom san'ati nufuzini milliy va xalqaro miqyosda yangi bosqichga ko'tarish madaniyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bugun nafaqat maqom ijrochiligi, balki uning nazariy asoslari ham chuqur o'rganilmoqda. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Maro'g'iy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Komil Xorazmiy, Abdurauf Fitrat, shuningdek, Yunus Rajabiy, Fayzulla Karamatov, Is'hoq Rajabov kabi allomalarning ilmiy asarlari, maqomshunoslik an'analari davom ettirilmoqda.

Maqom san'atining nazariy, tarixiy va falsafiy masalalarini o'rganadigan maxsus ilmiy kengashlar faoliyati yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Biz sohada yuksak bilim va malakaga ega kadrlarni tarbiyalash vazifasiga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu borada "musiqa maktabi – ixtisoslashgan maktab – oliygoh" tizimi yo'lga qo'yilgani yoshlarimizning aniq dasturlar asosida uzluksiz ta'lim olishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Yaqinda madaniyat va san'atning 21 ta yo'nalishida, xususan, maqom bo'yicha ham ijodiy birlashma tashkil qildik. Ushbu birlashmalar jamiyatimizning eng quyi bo'g'ini bo'lgan mahalladan boshlab ijodkor yoshlarni topish, ularni ko'llab-quvvatlash va iste'dodini yuzaga chiqarishga ko'mak beradi. Endilikda yosh maqomchilarning ijodiga yangi nafas olib kirish uchun har bir mahalla, tuman, viloyat va respublika miqyosida tanlovlar o'tkazamiz. Qadrlidostlar!

Hozirgi vaqtda "Shashmaqom" durdonalari, Farg'ona – Toshkent va Xorazm maqomlarining o'rganilmagan matnlari hamda noyob ijro uslublari qayta tiklanmoqda. Ayni yo'nalishda yirik ilmiy va akademik nashrlar, ovozi arxivlar tayyorlanmoqda.

(Davomi 2-betda).



QALBLARNI BIRLASHTIRGAN MA'NAVY KO'PRIK

Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan shahrida uchinchi Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimida ishtirok etib, nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari anjuman ishtirokchilari, xorijiy mehmonlar, madaniyat va san'at namoyandalari qutlab, maqom san'ati qalblarni birlashtiradigan, odamlarga ezigulik ulashadigan ma'naviyat ko'prigi ekanini ta'kidladi.

Qayd etilganidek, yurtimizda doimiy tus olgan ushbu anjuman maqom san'atining umumbashariy nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan muhim xalqaro maydonga aylanib bormoqda.

Tadbirda UNESCO, ICESCO, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, TURKSOY, Turkiy Parlament Assambleyasi, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi hamda boshqa xalqaro tuzilmalar rahbarlari, xorijiy mamlakatlarining madaniyat vazirlari, elchilar, 80 dan ortiq davlatlardan 250 ga yaqin madaniyat va san'at vakillari ishtirok etmoqda.

Prezidentimiz anjumaning bu galgi manzili bo'lgan Namangan diyoringing o'ziga xos madaniyati, san'ati, mehnatkash va bunyodkor xalqi haqida alohida ta'kidladi. Buyuk shoir va mutafakkir Boborahim Mashrab, Nodim, Fazli, Majzub Namangoni, So'fizoda, Ibrat, Usmon Nosir, Chustiy kabi ijodkorlar, shuningdek, milliy musiqa san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan hofiz, sozanda va bastakorlarning boy merosi hurmat bilan tilga olindi.

Shu kunlarda Namanganda 65-xalqaro gullar festivali ham yuksak saviyada o'tayotgani qayd etildi. Ushbu festival Yangi O'zbekiston sharoitida oddiy gullar ko'rgazmasidan xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgan katta madaniy hodisa va milliy brend darajasiga ko'tarilgani ta'kidlandi.

Joriy yilda Namanganda 150 million tupdan ortiq gul ko'chatlari o'tqazilib, bu natija xalqaro miqyosda tan olingani va "Ginnessning rekordlar kitobi"ga kiritilgani e'tirof etildi.

Prezidentimiz maqom san'atining milliy va jahon madaniyatidagi o'rni haqida so'z yuritdi. UNESCO tomonidan

Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan maqom oddiy musiqa emas, balki millat xotirasi, xalq qalbi va asrlar osha yangrab kelayotgan ma'naviy ovoz ekani ta'kidlandi.

Uchinchi Xalqaro maqom san'ati anjumanining asosiy maqsadi ushbu noyob merosni asrab-avaylash, o'rganish va targ'ib etish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishdan iborat ekanini qayd etildi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda maqom san'ati nufuzini milliy va xalqaro miqyosda yangi bosqichga ko'tarish madaniyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Maqom ijrochiligi bilan birga uning nazariy, tarixiy va falsafiy asoslari ham chuqur o'rganilmoqda.

Bu borada "musiqa maktabi – ixtisoslashgan maktab – oliygoh" tizimi yo'lga qo'yilgani, madaniyat va san'atning 21 ta yo'nalishida, jumladan, maqom bo'yicha ijodiy birlashma tashkil etilgani ta'kidlandi. Endilikda har bir mahalla, tuman, viloyat va respublika miqyosida yosh maqomchilar talonlari o'tkaziladi.

Prezidentimiz maqom san'atini rivojlantirish bo'yicha qator yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Yangi Toshkentda barpo etilayotgan muhtasham Maqom markazini Dunyo maqom markazi deb nomlash, uning qoshida Xalqaro maqom akademiyasini tashkil etish taklif qilindi. Ushbu akademiya o'zbek maqom maktablari bilan bir qatorda arab, turk, fors, tojik, hind va boshqa Sharq mumtoz musiqa yo'nalishlari ham o'qitiladi.

Markaz qoshida dunyo miqyosidagi noyob musiqiy qo'lyozmalar, tovush yozuvlari va nota arxivlarini jamlagan Xalqaro raqamli kutubxona va laboratoriya tashkil etiladi. Mazkur majmua soha olimlari va san'atshunoslarini birlashtiradigan global ilmiy-akademik platformaga aylanishi ta'kidlandi.

Shuningdek, Jahon maqom antologiyasini yaratish tashabbusi ilgari

sulirdi. Unda maqom, mug'om, mukam, dastgoh kabi dunyo xalqlarining mumtoz musiqa namunalarini, notalar, audio va video yozuvlar, ilmiy tadqiqotlar yagona raqamli platformaga joylashtiriladi. Maqom ijrosi bo'yicha mobil ilova ishga tushirilib, uning fonotekasi doimiy yangilab boriladi.

Maqom ilmini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro jamg'arma tashkil etish, uning grantlarini ilmiy izlanishlar, noyob manbalarni o'rganish, innovatsion loyihalar va soha vakillarini rag'batlantirishga yo'naltirish taklif etildi.

Jamg'arma hisobidan Xalqaro maqom mukofotini ta'asis etib, maqom rivojiga katta hissa qo'shgan olim va san'atkorlarni har ikki yilda taqdirlab borish maqsadiga muvofiq qayd etildi.

Shu bilan birga, "Shashmaqom"ning 6 ta yo'nalishi bo'yicha hududlarda "Maqom yo'li" madaniy-turistik marshruti yaratiladi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz va Toshkentda maqom yo'nalishlariga bag'ishlangan turizm-yemaklik shahar tashkilotlari.

Yurtimizda maqom asarlarining oltin fondini yaratib, xalqimizga yetkazib kelayotgan Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambliga milliy davlat ansambli maqomi berilishi ma'lum qilindi.

Davlatimiz rahbari Xalqaro maqom san'ati anjumanini maqomning umrboqiy merosini kelajak avlodlarga yetkazadigan, xalqlar o'rtasida do'stlik va madaniy mulohazani mustahkamlaydigan muhim xalqaro maydonga aylanib borayotganini ta'kidladi.

Nutq yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev anjuman ishtirokchilariga shihat-salomatlilik, jo'shqin ilhom, yangi ijodiy yutuqlar tilab, uchinchi Xalqaro maqom san'ati anjumanini ochiq deb e'lon qildi.

Marosimda konsert dasturi namoyish etildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatida tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

